

**NIZOM UL-MULKNING "SIYOSATNOMA" ASARINING  
BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI**

***Ro`ziyeva Malika Ilyos qizi***

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg 'on filiali*

*Ijtimoiy ish ta 'lim yo 'nalishi talabasi;*

*e-mail: malikaroziyeva7716@gmail.com*

***Hasanova SHaxinabonu Alisher qizi***

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg 'on filiali*

*Ijtimoiy ish ta 'lim yo 'nalishi talabasi;*

*e-mail: shaxinabonuhasanova@gmail.com*

***Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich***

*Samarqand davlat universitetining*

*Kattaqo 'rg 'on filiali o 'qituvchisi*

*e-mail: Jahongir.5066@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat, jamiyat boshqaruvida Nizom ul-Mulkning "Siyosatnoma" asarida keltirilgan shoh va hokimlarni adlu insofga, kelishuv va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartibli ,amaldorlarni pok, halol va iymonli bolishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga qaratilgan fikirlaridan foydalangan holda hozirgi davlar boshqaruv jarayonida bu fikirlardan foydalanish ko`zda tutilgan. Davlatni markazlashtirish, o'zaro parokandalik va ayirmachilikka qarshi kurash, xo'jalik va madaniy hayotni yuksaltirish, aholi farovonligini oshirish uchun Nizom ul-Mulkning hissasi ancha baland bo`lgan. Hozirda davlat boshqaruvida, davlat raxbarlari ham ushbu tajribalarga tayangan holda davlat boshqaruv tizimini olib borayotganliklari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Siyosatnoma, davlat boshqaruv,Nizom ul- Mulk, siyosati, Saljuqiylar davlati, hukumat,davlat, boshqaruv tizimi, Malikshoh.

**Annotation:** In this article, in the management of the state and society, the kings and governors mentioned in Nizam ul-Mulk's work "Politics" are directed to justice, peace and benevolence, to manage the state wisely, strict rules and order, officials to be pure, honest and faithful, the prosperity of the country, its It is planned to use these ideas in the management process of the present times, using the ideas aimed at ensuring the well-being, peace and harmony of the people. Nizam ul-Mulk's contribution to the centralization of the state, the fight against mutual disunity and separatism, the improvement of economic and cultural life, and the welfare of the population was very high. Currently, in public administration, it is thought that the state leaders are running the public administration system based on these experiences.

**Key words:** Policy, state administration, Nizam ul-Mulk, politics, Seljuk state, government, state, management system, Malikshah.

**Аннотация:** В данной статье в управлении государством и обществом цари и правители, упомянутые в произведении Низама уль-Мулька «Политика», направлены на справедливость, мир и доброжелательность, разумное управление государством, строгие правила и порядок, чиновники быть чистым,

честным и верным, процветание страны, ее. Эти идеи планируется использовать в процессе управления современности, используя идеи, направленные на обеспечение благополучия, мира и согласия народа. Вклад Низама уль-Мулька в централизацию государства, борьбу с взаимной разобщенностью и сепаратизмом, улучшение экономической и культурной жизни, благосостояние населения был очень высок. В настоящее время в сфере государственного управления считается, что руководители государств управляет системой государственного управления на основе этого опыта.

**Ключевые слова:** Политика, государственное управление, Низам уль-Мульк, политика, государство Сельджуков, правительство, государство, система управления, Маликшах.

### KIRISH

Nizom ul-Mulk Saljuqiylar davlati arbobi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusijning unvoni, "Nizomulmulk", ya'ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. 1067 yil Bag'dodda "Nizomiyya" aqoid va huquq madrasasini qurdiradi. 1091 yil "Siyosatnama" ("Siyar ul-muluk") asarini yozadi. Unda davlat boshqaruviiga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg'oqchilik ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rinn olgan. Nizom ul-Mulk Bag'dod safari yo'lida yollangan qotil tig'idan halok bo'ladi.<sup>1</sup>

"Siyosatnama", yoki "Siyosatname", siyosiy hikmat va hukumat boshqaruving nazariy asoslari bo'yicha yozilgan eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Bu asardan davlat boshqaruvida rahbar xodimlarni ish yuritishlari uchun aynan kerakli asarlardan eng asosiysi hisoblanadi. Davlat, jamiyat boshqaruvida har bir rahbar xodimlar o'z soxalaridan kelib chiqqan holda davlat ravnaqi, davlat kelajagi uchun o'z rahbarligini oqilona, odilllik bilan, adolatli bo'lib, olib borsagina mana shu davlatda o'sish va rivojlanish bo'ladi. Aynan mana shu masalalar bo'yicha biz "Siyosatnama" asaridan bilim va ko`nikmalar, tajribalar olishimiz mumkin.

Nizom ul-Mulk "Siyosatnama" asarini aynan davlat boshqaruvida Rahbarlar uchun o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda yaratgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Siyosatnama" asari Nizom ul-Mulk tarafidan 1092-1093 yillarda yozilgan bo'lib, o'rta asr davlat boshqaruvi va siyosatining nazariy asoslari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ushbu asar orqali davlatining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, rahbariyati, davlat boshqaruvi tizimi, jamoat hayoti, sof davlatchilik masalalari va jumladan talabalar tayyorlash sistemasi haqida buyuk ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

A.A.Zejev "Nizomulmulk va uning "Siyosatnama" asari" nomli maqolasi (1957 yil) asarning siyosiy nazariya va amaliyot jihatidan ahamiyatini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Nizomulmulk, Siyosatnama yoki Siyar ul-muluk, Toshkent. 1997.3 bet

D.S.White "Medieval technology and social change" kitobida "Siyosatnoma"da davlat xizmati, xizmatdorlik tizimi va uning rivojlanish tarixi haqida mablag'lar keltirib, shunga asoslanib saljuqlilarning davlat boshqaruvini tahlil qilgan<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» da Xoja Kamoliddin Husayn nomli shoir haqida gapira turib shunday yozadi: «Xoja Nizomulmulkning o'g'lidir. Otasining taayyun va ishtihori burungi Nizomulmulkdin ortiqroq bo'lmasa, o'ksuk (kam) ham emas. E'tibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti... » Navoiyning gaplari shuni ko'rsatadiki, Hirot madaniy muhiti uchun saljuqiylar vaziri taniqli shaxs bo'lgan. Shu boisdan ham boshqani unga qiyoslab, nisbat berib ta'riflayapti.

“Temur tuzuklari”da aqlli, bilimdon va hushyor vazir» mamlakat hayotining turli jabhalarida juda katta kuch ekanligi, podshohining boshiga tushgan muhim va mushkul ishlarni tadbirkorligi va uzoqni ko'ra bilishi qobiliyati bilan osonlashtirishi olivjanoblarcha e'tirof etiladi. «Bunday vazirni e'zozlab, izzat-ikrom etsinlar», «davlat sherigi bilib, aziz tutsinlar. Zinhor uning so'zidan chiqmasinlar, u nima degan bo'lsa, bari aql ko'zgusidir», deya qayta-qayta ta'kidlanar ekan, shunday hurmatga sazovor vazir sifatida yana Nizomulmulk misol sifatida keltiriladi<sup>3</sup>.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston Strategiyasi” kitobida ham davlat boshqaruviga oid bilim va tajribalar keltirib o`tilgan.

Islom Abdug'anievich Vatanimizni buyuk muxabbat bilan sevish, halqimizga sadoqat bilan xizmat qilish, bu yo`lda bor bilim va tajribamiz, butun borlig`imizni safarbar etish borasida biz uchun yuksak ibrat mакtabini yaratib ketdilar<sup>4</sup>.deb keltirilgan “Yangi O'zbekiston Strategiyasi” kitobida.

Konfutsiy jamiyatni boshqaruv masalasida shunday degan edi: «Agar meni hukmdorlardan birortasi jamiyatni boshqaruv ishiga jalb etgudek bo'lsa, 12 oyda ishda ijobjiy o'zgarishlar yasagan va uch yil mobaynida boshqaruv ishini tubdan takomillashtirgan bo'lur edim »

Ushbu asar orqali har bir davlat arbobi, mas'ul shaxs, siyosatshunos olim, ziyoli barcha vatandoshlarimiz mazkur kitobda bayon etilgan ajdodlar tajribasidan o'z faoliyatlari uchun zarur saboq va ma'naviy quvvat olishlari aniq.

### **MUHOKAMA**

“Siyosatnoma” asarda davlat boshqaruviga oid juda ko'p bilim va tajribalar bilan yoritilgan bo`lsada, bu asarda aynan ayollarga bo`lgan munosabat juda yomon edi. Ko'pchilik aytishadiki ayollar faqat uyda o'tirib farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak deyishadi.U ayol qandaydir bilimga yoki ilmgaga ega bo'lmasa farzandiga qanday tarbiya berishi mumkin. Agar inson harakat qilsa hammasiga erishadi va eplaydi .Shunday ekan ayol kishini ham oila ham ishni ham qilish ulguryapdimi bilinki unday inson farzandiga ham o'zi xohlaganday bilim ham ilm ham bera oladi. Shu sababdan ham bu asar har taraflama ko`nikma bera oladi deb o`ylameman. Shunday hikoyani ham eslab o'tish lozim deb bildim .

Buzurgmehrdan so'radilar :

<sup>2</sup> Ne'matova Rahima Shamsiddinovna Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi

<sup>3</sup> Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk, Toshkent. 1997 4bet

<sup>4</sup> Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” T: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022

Nega al-Sason sultanati barbod bo'ldi? Sen ularning tadbirli va dono kishisi edingku? Bugungi kunda tadbirkorlarliging , yaxshililing va bilimingga teng keladigan kishi jahonda ko'rinxaydi-ku?

-Ikki sabab bor.Biri shuki , al-Sason buyuk ishlarni mayda va nodon kishilarga buyurardi.Ikkinchisi, ilm axli va hirmand kishilarni xizmatlarga olmay , xotinlari va yosh kishilar bilan ish tutardi .Bu ikkala guruhga ham aql ,bilim va tajriba yetishmasdi.Kimki xotinlar va bolalariga amal bersa , qo'lidan podshohlik ketadi.<sup>5</sup>Bu hikoyada O`sha davrda ayollar juda pass pog`onada ekanligini ko`rishimiz mumkin.To'g'ri ayollar doim erkaklardan bir pog'ona pas yurishi kerak lekin bilim va ilm olish jihatidan teng huquqlidirlar.

Masalan bu asarda davlat boshqaruvida diniy bilimlarga ko`proq tayanish kerak deb aytilgan, ammo dunyoviy bilimlar ham davlat boshqaruvida juda ko`p ahamiyatga egadir.

Ikkinci muhokama predmeti sifatida asardagi ba`zi tajribalar XXI asr muhitiga mos kelmasligi aytish mumkin. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga ulgurib bo`lingan. Shu sababli, asarning bu yo'nalishdagi ma'lumotlarini qarama-qarshilikli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Siyosatnoma, davlat boshqarish, hukmdor vazifalari, adliya tizimi, askariy tuzilma, soliq tizimi, ta'lim, tashqi siyosat, boshqaruv organlari va davlatning umumiy ishslash tartibiga oid mavzularni o'z ichiga oladi. Kitob, davrning siyosiy va ijtimoiy tuzilishini tushuntirish uchun muhim bir manba sifatida hisoblanadi va Saljuqiylar Davlati boshqarish tasavvurini va siyosati ko'rsatadi.

Siyosatnoma, shuningdek, O'rta asrlar Islom dunyosining siyosiy fikriga va boshqaruv tizimiga oid muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Nizomulmulk, kitobda hukmdorning rolini, davlatning barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hukumat siyosatini va boshqarish prinsiplarini tafsilotli tarzda bayon qiladi.

Davlar boshqaruvida raxbarlar uchun juda ko`p bilimlar beradigan asarlar va olimlar tajribasini bilamiz, lekin davlat boshqaruvida "Nimomulmulk"ning "Siyosatnoma" asari juda foydali va zarur bo'lgan asar hisoblanadi. Bu asarda Nizom ul-Mulk davlat boshqaruvini ham diniy, ham dunyoviy jihatdan boshqarish haqidagi fikirlarini aytib o`tganlar.

Davlat boshqaruvida tarixiy tajribalar va bilimlar olmoqchilar uchun Siyosatnoma, asl matni bilan muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu asar, davrning siyosiy, boshqaruv va ijtimoiy tuzilishini tushunishga yordam beradi va Saljuqiylar Davlati boshqarish tasavvurini va siyosatini tushuntiradigan qadrli bir nazariya beradi. Bu asarni o`qib chiqqan har bir shaxs o`zi uchun kerakli ko`nikmalarni olishi uchun qulay manbadir.

### **XULOSA**

Xulosa qilishda, Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari boshqaruv jarayonida raxbarlar va xodimlar uchun ma`naviy bilimlar jamlanmasi hisoblanadi. Aynan Nizom ul-Mulkning o`zi amal qilgan va o`zi ko`rgan kechirganlari haqida hikoyalar jamlanmasini yaratadi. Biz bu asardagi har bir hikoyani o`qir ekmiz bizda bu dunyoda

<sup>5</sup> Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk, Toshkent. 1997.

adolatli pok va mexrli bo`lish kerakligi haqida o`z ko`nikmalarimizga ega bo`lamiz. Bu asarda har qnday davlatmi, tashkilotmi o`z raxbarlarini qobilyatlari, bilimlari va boshqa jihatlariga qarab tanlash kerakligi haqida ham hikoyalarda keltirilgan.

Asarning eng qimmatli tomoni shundaki, muallif o`z kuzatishlari asosida saljuq hukmdorlarining fe'l-atvorini, axloqiy fazilatlari va nuqsonlarini, ularga bo`lgan munosabatini haqqoniy tasvirlab bergen. Nizomulmulkning bu fikrlari raxbar xodimlar uchun kerakli manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Siyosatnoma" asari Saljuqiylar davlatining ichki siyosati, ijtimoiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimini chuqr o'rganishda nihoyatda qimmatli tarixiy manba hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi"  
T: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022
2. Islom Karimov "Yuksak Ma`naviyat Yengilmas Kuch" T: "Ma`naviyat" 2008
3. Nizomulmulk, Siyosatnoma, Toshkent. 1997
4. Nizomulmulk "Siyosatnoma" (Siyar ul-Muluk) Toshkent "Yangi asr avlod" 2008
5. O'.M.Ensklopediyasi T.: "Davlat ilmiy nashriyoti" 2007
6. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net) internet sayti